

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN BUNYODKORLIK ISHLARI.

*Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Tarix va Filologiya fakulteti Tarix yo'nalishi
3-bosqich talabasi Saydullayeva Iroda*

Annotasiya: Zahiriddin Muhammad Boburning hukmronligi davrida mamlakat bunyodkorligi yo'lida amalga oshirgan qurilish inshootlari va ularning tarixiy ahamiyati haqida bo'lgan ushbu maqolada muallif o'sha davrning o'ziga xos bo'lgan qurilish uslublarini bayon etgan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, davlatchilik, Hindiston, me'morchilik, adabiyot, madaniyat.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zbek mumtoz adabiyotining ulkan namoyandalaridan biri bo'lish barobarida me'morlik va bog' tuzish, obodonchilik sir-sinoatlarini ham chuqur bilgan. Hindistondagi hozirda olamga mashhur, jahon me'moriy merosida muhim o'rin tutgan, musulmon me'morchiligiga xos bo'lgan muhtasham obidalari yaratilishiga asos solgan. O'zining mashhur "Boburnoma" - asarida u ko'plab me'moriy inshootlarni qisqa, lo'nda va chuqur ta'riflab bergen. Hozirda bu asar zamonasining me'moriy inshootlari haqidagi qimmatli manba sifatida ham qadrlidir. Mustaqillik yillarida Bobur faoliyatidagi bunyodkorlik, xususan, me'morlik va shaharsozlikka oid ishlarga qiziqish yanada kuchaydi. Ayniqsa, XVI-XVIII asrlarda Bobur va boburiylarning Hindiston me'morchiligiga olib kirgan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq me'morlik g'oyalari va ularning bu hududda o'ziga xos ko'rinishda rivojlanish masalalarini o'rganish ilmiy nuqtai nazardan dolzarb mavzuga aylandi.

Xalqaro madaniy aloqalarning rivojlanishi va O'zbekiston xalqlarining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasining tan olinishi buyuk yurtdoshlarimizning jahon me'morchiligidagi faoliyatiga ham e'tiborni kuchaytirdi. Ulug' vatandoshimizning me'morlik va obodonchilik ishlariga munosabatini aniqlashda uning "Boburnoma" asarida qayd etgan shaharlar tizimi, me'moriy inshootlar va qurilish sohasiga oid fikrlari, ma'lumotlari e'tiborga sazovordir. U o'zi ko'rgan shahar-qishloqlar, turli inshootlarga lo'nda va aniq ta'riflarni keltirgan. Shoир yozganlarasi asosida Markaziy Osiyo va Xurosonning XV asr oxiridagi shaharsozlik tizimi haqida Andijon, O'sh, Marg'ilon, Isfara, Xo'jand, Konibodom, Axsikat, Koson, Samarqand, Hirot, Kobul shaharlari qiyofasi to'g'risida ma'lum darajada tasavvurga ega bo'lish mumkin. Masalan, Andijon to'g'risidagi yozganlaridan XV asrdagi mazkur shahar qalin devor bilan o'ralgani va uch darvozali qal'adan iboratligi, atrofida aholi zinch

joylashgan turar joy mahallalari bo‘lgani haqidagi ma’lumotni olish mumkin. Bobur O‘sh tarafidagi maskanlar ta’rifini keltirayotib, bu yerda o‘zi qurdirgan inshoot haqida ham hikoya qiladi. Bobur qurdirgan bu bino tog‘ning yuqorisida, qulay hududda joylashgan va O‘sh shahrini butunlay yuqoridan tomosha qilish mumkin bo‘lgan.

Taniqli tadqiqotchi olim Ketrin Esherning fikriga ko‘ra, Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistondagi qisqa muddatli hukmronligi davrida Temuriylar davri qurilish uslubini Hindiston me’morchiliga olib kirishga muvaffaq bo‘lgan. Olim yana shunday ma'lumot beradi: «Bizning kungacha uchta masjid saqlanib qolgan. Panipatdagi «Qobuliy bog‘» va yana boshqa ikki masjid: ulardan biri Sambhalda, ikkinchisi Ayodhiyada qad ko‘targan. Ularning barpo bo‘lishida Boburning o‘zi va aqoriblari bevosita rahnamolik qilishgan». Toshkent Arxitektura-qurilish instituti dotsenti Nafisa Gilmanova o‘z ilmiy tadqiqotlari natijasi bo‘lgan ayrim ma'lumotlarni taqdim etdi. Uning aytishicha, Panipatdagi «Qobuliy bog‘» masjidi Hariyana shtatida joylashgan bo‘lib, ushbu masjid qurilishi 1528 yilda tugallangan. Masjidning markaziy qismida qibлага qaratib qurilgan peshtoq qad ko‘tarib turibdi. Masjid mehrobi toshdan terilgan, inshootning qolgan devorlari g‘ishtdan tiklangan bo‘lib, sirti suvoqlangan. Oq-qora marmarga bitilgan Qur'on oyatlari yozuvi 1527-1528 yillarga mansub. Quriish chog‘ida hind ustalari ayrim mahalliy me'moriy uslublarni ishlatganlariga qaramay, «Qobuliy bog‘» masjidining umumiyligi me’morchiligi Samarqanddagi «Bibixonim» me'moriy majmuasiga yaqin. Sambhal» masjidi esa shu nomli vohada Dehlidan 140 km uzoqliqda joylashgan. O‘sha davrga oid hind miniatyuralaridan birida Bobur ot mingan holda «Sambhal» masjidini eslatuvchi minora qarshisida tasvirlangan. Ram Nathning guvohlik berishicha, inshootdagi uch yozuvdan bittasida quyidagi jumlaga duch kelish mumkin: «Bobur farmoni bilan bu masjid qurilishi uning aqoribi Mir Hindubek tomonidan 933 (1526) yilda boshlandi». Bizgacha saqlanib qolgan Mirzo Bobur masjidlaridan uchinchisi 1527-1529 yillarda Fayzobod nohiyasida Ayodhiya qishlog‘ida, Ghagahra daryosi sohilida Boburning a'yonlaridan biri Mir Boqiy Toshkandiy tomonidan tiklangan. Markaziy qubbadagi yozuv tarjimasiga tayangan holda (tarjimon Mavlyaviy Ashraf Husayn) Ram Nath ta'kidlaydiki, «...mamlakat hukmdori Bobur ushbu masjid tiklanishida shaxsan rahbarlik qildi».

Bugungi kunda ham faoliyat yuritayotgan ushbu masjidlar shoh va shoir bobomizdan meros noyob yodgorliklardir. Hindistonlik tarixchilar Bobur hukmronlik davrini turlicha talqin qilsa-da, u asos solgan sulola ushbu mamlakat taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shganini e’tirof etadi. Bobomiz harbiy yurishlar bilan birga, Agra va Dehlida yirik bog‘lar, ariq va hammomlar qurdirdi, masjid, maktablar bunyod etdi. Ilm-ma’rifatga katta e’tibor qaratdi. Bugungi kunda Bobur va Boburiylarga taalluqli ko‘plab moddiy boylik va asarlar, qo‘lyozmalar dunyo bo‘ylab keng tarqalgan. Masalan, unga tegishli noyob qilich Nyu-Yorkning Metropoliten muzeyida saqlanadi. Bobomizga in’om qilingan Ko‘hinur olmosi esa Buyuk Britaniya qirollik oilasi

tomonidan tasarruf etiladi. Buyuk sarkarda va davlat arbobi Boburning tarixiy ashyolari dunyo muzeylari va shaxsiy kolleksiyalardan joy olgan. Shuningdek, Hindistonda ham Bobur va Boburiylarga tegishli buyumlar, tarixiy manbalar juda ko‘p. 1528-yilda yozilgan “Devoni Bobur”ning asl qo‘lyozmasi va 1640-yilda chizilgan “Shahzoda Doro Shukuhning to‘y marosimi” miniatyurasining nusxalari shular jumlasidan. Ushbu noyob asarlar nusxalari O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligi ko‘magida mamlakatimizga olib kelindi.

Boburiylar Hindiston taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan shaxslardir, – deydi Rampur Raza kutbxonasi mas’ul kotibi Sanam Ali Xon. – Bu tarixiy haqiqat. Boburiy podshohlar ilm-fan, buniyodkorlik sohasida boshqalarga o‘rnak hisoblanadi. Ular homiyligida qurilgan binolar bugun Hindiston, Pokiston, Bangladesh xalqlarining faxridir. Shuningdek, Boburiylar aql-zakavot, ijodiy ishlarda ko‘pchilikka o‘rnak. Ushbu sulola vakillari tomonidan qoldirilgan bebahvo ma’naviy meros hind va o‘zbek xalqlari boyligi. Rampur Raza kutubxonasida saqlanayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur va Boburiylar sulolasiga oid tarixiy ashyolar madaniy ildizlarimiz, tariximiz o‘xhashligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bobur 3.M. Boburnoma. – Toshkent. 2001.
2. Hasanov S . Boburning Aruz risolasi. -Toshkent. 1981.
3. Сагдуллаев А, Аминов Б, Мавлонов Ў, Норқулов Н. Ўзбекистон тарихи: давлат ва жамият қуриш тараққиёти. – Тошкент. 2000.
4. Ermatov B. Amir Temur G’arbiy Yevropa adiblari nigohida. –Toshkent. 2019.
5. Норқулов Н. Темурйилар даври маданият тарихидан лавҳалар. Урганч: Хоразм,1996